



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> May, 2025

## **SHAHAR AHOLISINI JAMOAT TRANSPORTIDA TASHISHDA HARAKAT MUNTAZAMLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

G'iyosiddinov Bobur Baxtiyorovich

Toshkent Davlat Transport Universiteti

“Transport iqtisodiyoti” kafedrasи dotsenti

Otanazarova Charos Baxtiyor qizi

Magistratura 1-bosqich talabasi

### **MAQSADI:**

Ushbu tezisning asosiy maqsadi shahar aholisini jamoat transportida tashishda harakat muntazamligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi: Shahar jamoat transporti tizimining hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud muammolar va kamchiliklarni aniqlash. Harakat muntazamligiga ta'sir etuvchi omillarni (yo'l harakati, transport vositalarining texnik holati, dispetcherlik xizmati, yo'lovchilar oqimi va boshqalar) o'rghanish. Xorijiy davlatlarning jamoat transportida harakat muntazamligini ta'minlash bo'yicha ilg'or tajribalarini o'rghanish va O'zbekiston sharoitiga mos keladigan jihatlarini aniqlash. Shahar aholisini jamoat transportida tashishda harakat muntazamligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar va takliflar ishlab chiqish (masalan, optimallashtirilgan marshrutlar, zamonaviy dispetcherlik tizimlari, aqlii transport texnologiyalari, infratuzilmani takomillashtirish va boshqalar). Ishlab chiqilgan takliflarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash. Ushbu tezis natijalari shahar jamoat transporti tizimini takomillashtirish, aholining transport xizmatlaridan qoniqish darajasini oshirish va shaharlarda transport muammolarini kamaytirishga xizmat qiladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Hozirgi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarish kuchlarining transportga bo'lgan xarajatlarini sezilarli darajada tejash-bu ishlab chiqarilayotgan mahsulot va butun iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshiradi. Buning uchun esa transport-logistika



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> May, 2025

sohasini rivojlantirish zarurdir. Yo‘lovchi tashishning asosiy maqsad va vazifasi aholining transportga bo‘lgan ehtiyojini kerakli sifatda qondirishdan iborat. Shahar jamoat transporti tizimida yo‘lovchi tashish sifatini oshirish uchun jamiyatning transport sohasidagi ehtiyojlari oldiga bir qator masalalar qo‘yilgan. Bu borada yo‘nalishdagi jamoat transportining marshrutdagi faoliyati tahlillar va kuzatuvlar asosida o‘rganib chiqildi. Aholiga xizmat ko‘rsatishda shahar yo‘lovchi transporti sifatini oshirish dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu yo‘nalish yirik shaharlarda eng katta ahamiyatga ega, chunki shaxsiy transportdan foydalanadigan aholining soni keskin ortishi bilan jamoat transportining rentabelligi pasayadi va shuning uchun transportni tashkil etish samaradorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sinovdagi jamoat transportining Shaxardagi Avtoshoxbekatdan “Yashil Dunyo” savdo majmuasigacha bo‘lgan qatnovdagi vaqtizamonaviy “Geo tracker” ilovasi orqali hisoblab chiqilganda, avtobus harakat vaqtida jami 40 to‘xtashlarni amalga oshirdi va belgilangan manzilga yetib borish uchun 43 daqiqa 34 soniya vaqt sarfladi. Sinovning keyingi bosqichida geo-tracker ilovasi yordamida yo‘lovchilarining maksimal va minimal chiqib-tushishlari hisobga olinib, belgilangan standartlar asosida bekatlar ratsional joylashtirildi. Avtobus harakat vaqtida faqatgina belgilangan bekatlardagina to‘xtab harakatlandi hamda 18 marotaba to‘xtalishlarni amalga oshirdi. Sinov natijasida Avtobus 28 daqiqa 12 soniyada manzilga yetib keldi va bu ko‘rsatkichi bilan dastlabki holatdan 15 daqiqa 22 soniya tejab manzilga ertaroq yetib keldi.

## Xulosa

Jamoat transportining harakat davomida bekatlarga to‘xtab turishidan tashqari to‘xtab behuda vaqt sarflashi yo‘lovchilarining manzillariga yetib borish vaqtlarini ma’lum muddatga kechiktiradi, avtobusning yoqilg‘i xarajatini oshiradi, shuningdek jamoat transportini yo‘lning

qatnov qismiga to‘xtashi natijasida yo‘lning o‘tkazish qobiliyati bir muncha kamayib, piyodalar va boshqa avtotransportlar harakatiga xavf soladi.